

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOVA K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8
Bosma tabog'i:
Ofset bosma: Ofset qog'ozi.
Adadi: 10 nusxa
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.
Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

X.Mamajonov

Amir Temur hamda To'xtamishxon o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning manbashunosligiga doir ayrim fikr-mulohazalar 113

ADABIYOTSHUNOSLIK

X.Maxsudova, Sh.Shahobiddinova

Ergonimlarning leksik-semantik xususiyatlari 118

A.Abduraxmonov

Zamonaviy o'zbek nasrida rangning g'oyaviy yo'nalishni tashkillashdagi ahamiyati 122

B.To'rayeva

Xronotop poetikasining o'ziga xos xususiyatlari 127

N.Karimova

Abdulla Qodiriy asarlarida folklor xronotopi 134

P.Ro'ziboyeva, B.Karimov

Abdulhamid Cho'lpon hikoyalarida ayollar obrazi talqini, ayollar erki va ta'limi masalasi 138

N.Avazov

"Padarkush"ning ta'siri va jadid dramalarining yaratilishi..... 143

Sh.Axmedova

Omon matjon she'riyatining badiiy jihatlari..... 151

N.Soatova

Shuhratning masal va hajviy she'r yaratish mahorati 155

Sh.Turg'unov

Harbadoshlarning o'langa nisbatan ta'rifi xususida 162

TILSHUNOSLIK

Sh.Iskandarova, F.Musayeva

Muhammad Yusuf she'rlarida zamon tushunchasining o'rganilishiga doir..... 168

D.Ganiyeva

Turli tizimdagi tillarda nisbat shakllarining sinkretikligi va polifunksionalligi..... 171

Sh.Amonturdiyeva

Diniy matnlarning fonetik imkoniyatlari..... 176

N.Xoshimova

Bilvosita gaplarning turli madaniyatlarda ifodasi..... 184

M.Hojiyeva

Terminologik kompetentlik – bo'lajak filolog mutaxassislarni tayyorlashning asosi sifatida..... 187

V.Giyosova

Bolalarga oid murojaat birliklariga doir mulohazalar 190

S.Ahmadaliyeva

Pragmatonimlarning farqlovchi elementlari va funksiyalari haqida..... 193

H.Saipova

Nutqning sintaktik-kompozitsion tahliliy usullari 197

MATEMATIKA

T.Ergashev, D.Urinboyeva

Ikkinchi tartibli ikki o'zgaruvchili gipergeometrik funksiyalar nazariyasi haqida..... 201

B.Kadirkulov, M.Jalilov

Involutsiya qatnashgan kasr tartibli parabolik tipdagi tenglama uchun qo'yilgan teskari masala 209

N.Murolimova

Vazn funksiyasiga ega bo'lgan riman-liuvil va atangana-baleanu kasr tartibli operatorlar qatnashgan to'lqin tenglamasi uchun chegaraviy masala..... 214

FIZIKA - TEXNIKA

X.Raxmonjonov, Sh.Shuxratov

Zamonaviy elektr jihozlarini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish 223

M.Abdullayeva, Sh.Shuxratov

Texnologiya ta'limida milliy hunarmandchilikni kreativ yondashuv asosida o'rganishni pedagogik-psixologik imkoniyatlari..... 228

MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARIDA ZAMON TUSHUNCHASINING O'RGANILISHIGA DOIR

К ИЗУЧЕНИЮ КОНЦЕПЦИИ ВРЕМЕНИ В ПОЭМАХ МУХАММАДА ЮСУФА

ON THE STUDY OF THE CONCEPT OF TIME IN THE POEMS OF MUHAMMAD YUSUF

Iskandarova Sharifaxon Madaliyevna¹, Musayeva Feruza Muzaffar qizi²¹Iskandarova Sharifaxon Madaliyevna

– Farg'ona davlat universiteti professori filologiya fanlari doktori.

²Musayeva Feruza Muzaffar qizi

– Farg'ona davlat universiteti magistranti.

Annotatsiya

Maqolada zamon tushunchasi va uning o'ziga xos talqini, jahon va o'zbek tilshunosligida temporallikning ifodalanish xususiyatlari, mazkur tushunchaning Muhammad Yusuf she'riyati misolidagi ahamiyati masalalari yoritilgan. Temporallikning jahon va o'zbek tilshunosligidagi o'rganilganlik darajasi, bu hodisaga falsafa va tilshunoslikdagi yondashuvlar bayon etilgan. Bilish jarayonining bosqichlari, aqliy va hissiy bilish orqali zamoni idrok etish, his qilish, til taraqqiyotida mufassal anglab yetish masalalariga to'xtalib o'tilgan. Makon va zamon tushunchalarining keng qamrovligi, bog'liqligi, badiiy matnda namoyon bo'lishi yoritilgan. Muhammad Yusuf she'rlarida zamoni ifodalovchi leksemalarning tilning ma'lum sathlarida ifodalanishi bayon etilgan. Til tamaddun shakllanishidagi asosiy mezon sifatida zamon bilan bog'liq ravishda rivojlanib, sayqallanib borishi Muhammad Yusuf she'rlari misolida tahlil etilgan. Lingvistikada zamon tushunchasi bir vaqtda bir necha hududlarni qamrab olishi bayon etilgan.

Аннотация

В статье освещается концепция времени и его конкретная интерпретация, характеристики выражения временности в мире и узбекская лингвистика, важность сектантского понимания в примере поэзии Мухаммеда Юсуфа. Описан уровень изучения временности в мире и узбекской лингвистике, а также подходы к этому явлению в философии и лингвистике. Обсуждались этапы процесса познания, вопросы восприятия, ощущения времени через умственные и эмоциональные знания, детальное понимание в развитии языка. Освоение, связь, проявление понятий пространства и времени в художественном тексте выделены. Стихи Мухаммеда Юсуфа описывают выражение лексем, представляющих время на определенных уровнях языка. Развитие и отбеливание языка по отношению ко времени как основному критерию формирования тамаддуна анализируется на примере стихов Мухаммеда Юсуфа. Лингвистика утверждает, что понятие времени охватывает несколько регионов одновременно.

Abstract

The article covers the concept of time and its specific interpretation, features of expression of temporality in world and Uzbek linguistics, importance of this concept in the example of Muhammad Yusuf's poetry. The level of study of temporality in world and Uzbek linguistics, approaches to this phenomenon in philosophy and linguistics are described. The stages of the cognitive process, the perception and feeling of time through mental and emotional cognition, and detailed understanding in the development of language have been touched upon. The comprehensiveness, connection, manifestation of the concepts of space and time in the artistic text is highlighted. In Muhammad Yusuf's poems, lexemes representing time are expressed at certain levels of the language. Language, as the main criterion in the formation of civilization, is developed and refined over time, analyzed on the example of Muhammad Yusuf's poems. In linguistics, it is stated that the concept of time covers several areas at the same time.

Kalit so'zlar: zamon tushunchasi, temporallik, gap, nutq, mikromaydon.**Ключевые слова:** понятие времени, темпоральность, речь, речь, микрополе.**Key words:** concept of time, temporality, speech, speech, microfield.**KIRISH**

Til tamaddun shakllanishida ustuvor omil sifatida alohida e'tirof etiladi. U jamiyat a'zolarining muloqot vositasigina bo'lib qolmay, zamonlar aro rivojlanish bosqichlarining asosi sifatida ko'rsatiladi. Jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan tilshunoslik esa inson va uning jamiyatdagi o'rni bilan bevosita bog'liq. Shunday ekan, dunyo xalqlari shakllanishida inson omilining yetakchi o'rin egallashi, uni o'rab turgan makon va u bilan bog'liq zamon tushunchasining mohiyati masalalari tilshunoslikda turli ko'rinishlarda tadqiq etilgan. Bu tilda zamon tushunchasining keng ko'lamda o'rganilishini taqozo etib, tadqiqotlar uchun obyekt vazifasini o'tagan. Zamon tushunchasi falsafada — voqealarning va yer yuzining muayyan o'zgarishi sanaladi. Zamon va makon kategoriyasi har qanday ijtimoiy holat uchun muhim o'rin tutadi. Bir-birini to'ldiradigan mazkur tushunchalarning bir-

TILSHUNOSLIK

biridan farqli jihati shundaki, makon keng ko'lamli hodisa bo'lsa, zamonning o'lchovi muayyan tizimga solinadi. Zamon o'tmish bilan chegaralanmay, kelajakka tomon qadam bosadi. Har qanday hodisa muayyan makonda va muayyan zamonda sodir bo'ladi. Unga o'rganilayotgan davr va zamon nuqtai-nazaridan yondashiladi. Sababi, har qanday asar zamon mahsulidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Abu Nasr Forobiy o'z qarashlarida aqliy va hissiy bilishning mohiyati, turlari, ahamiyatini tasnif qiladi [1, 56]. Bu tasnif muayyan masalani o'rganishda o'ziga xos yondashuvga asoslanish kerakligini taqozo etadi. Maqolada aqliy bilishning tarixiy, qiyosiy, mantiqiy usullaridan foydalanildi. Negaki, temporallik tushunchasi ilmda o'ziga xos ahamiyat kasb etib, ko'plab allomalar asarlarida o'rganilgan. Jumadan, filologik lug'atda temporallik tushunchasiga quyidagicha izoh beriladi: "Jarayonning o'ziga xos fursati" [2, 43]. Temporallik o'z navbatida vaqt birliklari bilan belgilanmaydi. Tarixning har qanday o'tayotgan zamonni qamrab olishi, madaniyatning shakllanishi kabi omillar xalqlar turmushida va har qanday millat ongida o'z aksini topgan. Temporallik kategoriyasi ustida ko'plab ilmiy ishlar olib borilgan bo'lib, uning xususiyatlarini qozoq olimlari A.Baytursinuli, K.Jubanov, I.Mamanov, M.Balakaev, T.Kordabaev, A.To'leuov, A.Kaydar, N.Oralbay, Z.Kuzekoalalar tadqiqot ishlarida asoslab berilgan [3, 8].

Rus tilshunosligida esa A.Bondarko, I.Galperin, E.Shendels, Y.Turaeva, G.Zolotova, I.Moskalskaya, V.Kamolin, Z.Axmetjanova, N.Shaymerdinova asarlarida temporallik tushunchasining etimologiyasi, ifodalanishi, o'rganilishi ilmiy asoslangan [4,18]. Badiiy matnda, jumladan, Muhammad Yusuf she'rlarida makon va zamon tushunchasining o'rganilishi shoir she'riyati badiiyatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Har qanday badiiy asar muayyan zamonda, ma'lum zamon tushunchasini ifodalash uchun yaratiladi. Muhammad Yusuf lirikasida zamon tushunchasi o'ziga xos tarzda ifodalanadi. Shoir she'rlarida zamon tushunchasi ko'p o'rinlarda bayon etilgan bo'lib, u she'r ifodasida alohida ahamiyat kasb etadi. Shoirning "Diyor" she'rida:

Kuzda ketgan turna qaytgandek zinhor,
Bir kun huzuringga qaytishlarim bor,
Uzrimni o'zingga aytishlarim bor
Ey mening yuragim yo'qlagan diyor.

Mazkur satrlarda "kuz", "bir kun" so'zlari yordamida muayyan vaqt tushunchasi ifodalandi. Bu kabi satrlar shoir she'riyatida vaqtni ifodalash funksiyasi sanaladi. Tilning funksional va semantik aspektlarida muhim o'ringa ega bo'lgan temporallik kategoriyasi badiiy matnlarda stilistik, kommunikativ, semiotik vazifalarni bajaradi. An'anaviy ilmiy qarashlarda zamon ifodalovchi leksemalar she'r ohangdorligini ta'minlash vazifasini bajargan.

Shunday oqshom botar, shunday tong otar,

Kitobim o'qiyman — satri muqaddas.

Menga yoqmas ekrandagi Otabek,

U boshqa. U boshqa, men bilgan emas!..

Shoirning "Kinoga kirmayman" she'rida ham oqshom, tong kabi payt bildiruvchi otlar qo'llanilgan bo'lib, ular asar mohiyatini o'ziga xos ko'lamda bayon qilishga xizmat qiladi. "U boshqa, men boshqa" birliklarida ham mazmunan vaqt tushunchasi ifodalangan bo'lib, mazkur satrlar orqali asar badiiyligi va ekspressivligi ta'minlangan. Shoirning "Amir Temur nidosi" she'rida:

O'sha payt sen qayda eding, bolam der,

Qulog'ingga yetmadimi nolam der,

Meni qo'zg'ab nima topdi, olam der,

Amir Temur ruhi meni azoblar.

„O'sha payt“ leksemasi orqali muayyan vaqt semasini ifodalovchi mazmun anglashilgan. Badiiy matnlarda temporallik, asarni yaratishdan ko'zlangan kommunikativ-ekspressiv mazmunni shakllantirish, badiiy obrazlilikni ta'minlash uchun xizmat qiladi. Temporallik uslubidagi matnlarning lisoniy va badiiy yaxlitligini, ularning axborot yetkazish funksiyasini bajarishdagi o'rni katta.

XULOSA

Tilshunoslikda zamon tushunchasi ma'lum vaqt oralig'ida yuz beradigan jarayon va holatlarni namoyon etadi. Zamon yuz beradigan ish-harakatlarning bugungi kun holatiga nisbatan

ifodalanishidir. Zamonning namoyon bo'lishi falsafa, tarix, fizika, adabiyotshunoslik, sotsiologiya kabi qator sohalar bilan reallashadi. Inson tabiat mahsuli, oliy zot sifatida zamonning xoslik, uzviylik, mavjudlik kabi tamoyillari bilan bog'langan. Poetik nutq ko'rinishida zamon kategoriyasi yanada reallashadi. Shoir Muhammad Yusuf lirikasida bu leksemalar alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonning aks etishi asar mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi, unga o'ziga xos ko'rinish beradi. She'riyatda bu ifodalar davr ruhini berib, poetik mazmuni shakllantirish vazifasini ham o'taydi. Badiiy matnga xos bo'lgan temporallik hodisasining mohiyati gap tuzilishi sathida namoyon bo'ladigan zamon kategoriyasi mohiyatini aks ettiradi.

ADABIYOTLAR:

2. Forobiy A. Fozil odamlar shahri. – T., 2002. (City of virtuous people.)
3. Ma rufov. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T., 1981. (An explanatory dictionary of the Uzbek language.)
4. Лутфуллаева М., Сапарниёзова. Тилда темпораллик масаласи. –Т., 2008. (The issue of temporality in language)
5. .Ганиева, Д. А. (2011). Полифункциональность аргументов предиката. Вестник Южно-Уральского государственного гуманитарно-педагогического университета, (The multi-functionality of predicate arguments. Bulletin of the South Ural State University of Humanitarian Pedagogy)
- Ганиева, Ш. "Ўзбек фразеологизмларнинг структур тадқиқи– 1999. (Structural study of Uzbek phraseology)
6. Олимжонова С. Олам лисоний категориясида макон тушунчаси ва ўзига хослик: филол. фанлари фалсафа д-ри... дис. автореф -Т., 2018. (The concept of space and identity in the linguistic category of world: philology. Doctor of Philosophy... Diss. autoref)
7. Нурманов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси //Тошкент: Фан. – 2008. (Linguistic theory)
8. Қурбонова Б. Лексик сатҳда локаллик ва географик ландшафт номлари // Ўзбек тили ва адабиёти. 2007-йил, 1-сон (Locality and geographic landscape names at the lexical level)
9. GANIEVA D. SEMANTIC SYNCRETISM AND POLYFUNCTIONALITY.
10. Ganieva S. A. HYPO-HYPERONYMIC RELATIONSHIP BETWEEN PAREMA AND ITS UNITS //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (2767-3758). – 2021. – Т. 2. – №. 06. – С. 84-87.
11. Искандарова, Ш. (1998). Лексикани мазмуний майдон асосида ўрганиш муаммолари. Т.: Фан, 7 (Problems of learning vocabulary based on content field.)+